

IJTIMOIIY SOHADA XALQARO INTEGRATSIYALASHUV JARAYONIDA BYUDJET MABLAG‘LARI ORQALI KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH

Ajibayeva Rauiya Maxsutovna

ORCID: 0009-0000-9600-5276

Annotatsiya: Mazkur tezisda ijtimoiy sohada xalqaro integratsiyalashuv jarayonida byudjet mablag‘lari hisobidan kadrlar malakasini oshirish masalalari yoritilgan. Xalqaro tajribaning ahamiyati, malaka oshirish tizimining ijtimoiy soha rivojiga ta’siri hamda byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida kadrlar salohiyatini oshirish ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilashning muhim omili ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy soha, xalqaro integratsiya, davlat byudjeti, kadrlar malakasi, inson kapitali, malaka oshirish.

Abstract: This thesis examines the issues of improving personnel qualifications through budget funds in the process of international integration in the social sector. The role of international experience, the impact of professional development systems on the development of the social sector, and directions for the effective use of budget funds are analyzed. The study substantiates that enhancing human capital is a key factor in improving the quality of social services.

Key words: Social sector, international integration, state budget, personnel qualification, human capital, professional development.

Аннотация: В данной работе рассматриваются вопросы повышения квалификации кадров за счет бюджетных средств в условиях международной интеграции социальной сферы. Проанализировано значение международного опыта, влияние системы повышения квалификации на развитие социальной сферы, а также направления эффективного использования бюджетных средств. Обосновано, что развитие кадрового потенциала является важным фактором повышения качества социальных услуг.

Ключевые слова: Социальная сфера, международная интеграция, государственный бюджет, квалификация кадров, человеческий капитал, повышение квалификации.

Hozirgi globallashuv sharoitida ijtimoiy sohaning barqaror rivojlanishi xalqaro integratsiyalashuv jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va bandlik sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan yuqori malakali kadrlarni talab etadi. Xalqaro standartlar va ilg‘or tajribalarni joriy etish jarayonida kadrlar salohiyatining yetarli bo‘lmasligi islohotlar samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, davlat byudjeti mablag'lari orqali kadrlar malakasini oshirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat tomonidan moliyalashtiriladigan malaka oshirish dasturlari ijtimoiy soha xodimlarining kasbiy bilimlarini yangilash, zamonaviy boshqaruv va xizmat ko'rsatish usullarini o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Bu esa ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash va aholining turmush darajasini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Inson kapitalini rivojlantirish masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. G. Bekker [1] va T. Shults [2] tadqiqotlarida ta'lim va kasbiy tayyorgarlikka yo'naltirilgan investitsiyalar ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida e'tirof etiladi. Jahon banki [3] va BMT Taraqqiyot Dasturi hisobotlarida [4] esa davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladigan ta'lim va malaka oshirish dasturlari ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynashi ta'kidlangan. O'zbekiston olimlari tadqiqotlarida ham ijtimoiy sohada kadrlar salohiyatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rib chiqilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston davlat byudjeti ijtimoiy soha yo'nalishlariga ajratilayotgan mablag'lar hajmini oshirmoqda. 2025-yilning birinchi yarmida byudjetdan ijtimoiy sohalarga - jumladan ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlariga jami 86,2 trillion so'm yo'naltirilib, bu jami sarf-xarajatlarning 49,8 %ini tashkil etdi, bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan o'sish bilan kuzatilmoqda [5]. Shu bilan birga, 2024-yil byudjeti bo'yicha inson kapitalini rivojlantirishga jami 102,5 trillion so'm ajratilishi rejalashtirilgan bo'lib, undan 12,7 trillion so'm xodimlar tayyorlash va malaka oshirish tizimini rivojlantirishga yo'naltirilgan [6].

Bu moliyaviy yo'naltirishlar ta'limchilarning kasbiy o'sishiga, ijtimoiy xizmat ko'rsatish sifati va xalqaro standartlarga moslashtirish yo'nalishlariga xizmat qilmoqda. Masalan, davlat xizmatchilarini malaka oshirish, qayta tayyorlash va boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha kompleks dasturlar joriy etilmoqda, unda har yili minglab mutaxassislar tayyorlanmoqda, shu jumladan strategik fikrlash, innovatsion texnologiyalarni qo'llash kabi kompetensiyalar ustida ishlanmoqda.

Moliya va boshqaruv sohasidagi xodimlar uchun UNDP bilan hamkorlikda 2025-yilda ToT (trainers of trainers) treninglari o'tkazilib, davlat moliyaviy boshqaruvi va dastur byudjetlash bo'yicha malakalar oshirildi, bu esa samarali byudjet rejalashtirish va monitoringni takomillashtirishga xizmat qiladi [7].

Shunga qaramay, ijtimoiy soha kadrlarining moddiy rag'batlantirilishi bo'yicha statistika tahlillari ham muhim natijalarni ko'rsatadi. 2024-yilda ta'lim sohasida o'rtacha ish haqi 3,637 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda o'rtacha nominal ish haqi 4,372 mln so'mga yetdi, bu o'sish ijobiy bo'lsa ham boshqa sohalarga nisbatan past qolmoqda [8]. Bu holat malaka oshirish bo'yicha yo'naltirilayotgan byudjet

mablag'larining nafaqat o'quv va malaka dasturlarini, balki soha xodimlarining ijtimoiy sharoitini ham yaxshilashni talab etishini ko'rsatadi.

Umuman olganda, byudjet mablag'larining ijtimoiy sohalarga yo'naltirilishi va malaka oshirish dasturlarining amalga oshirilishi ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilashga turtki bermoqda, biroq natijalarning yanada samarali bo'lishi uchun monitoring, baholash hamda kadrlar rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish lozim.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy sohada xalqaro integratsiyalashuv sharoitida kadrlar malakasini oshirish davlat byudjeti mablag'laridan samarali foydalanishni talab etadi. Ushbu jarayonni takomillashtirish uchun malaka oshirish dasturlarini real ehtiyojlar asosida rejalashtirish, ularning natijadorligini oshirish va monitoring mexanizmlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash va barqaror ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. Chicago: The University of Chicago Press, 1993.
2. Schultz T.W. Investment in Human Capital. New York: The Free Press, 1971.
3. World Bank. The Human Capital Project. Washington, DC: World Bank, 2023.
4. United Nations Development Programme (UNDP). Human Development Report 2023/2024. New York: UNDP, 2024.
5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. 2025-yil I yarim yillik davlat byudjeti ijrosi to'g'risida rasmiy ma'lumotlar. Toshkent, 2025.
6. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida". Toshkent, 2023.
7. UNDP Uzbekistan. Programme budgeting and public financial management capacity development initiatives in Uzbekistan. Tashkent, 2025.
8. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. 2024–2025-yillarda ta'lim sohasi xodimlarining o'rtacha nominal ish haqi bo'yicha statistik ma'lumotlar. Toshkent, 2025.